

Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy ko'rsatkichlari


2025-yil yanvar-dekabr oylari uchun

- I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot
- II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar
- III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
- IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari
- V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari
- VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot

2026-yilning 1-yanvar holatiga, faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 20,5 mingtani tashkil etdi.

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni dinamikasi¹




¹ Adliya vazirligi taqdim etgan rasmiy ma'lumotlar asosida tayyorlangan



Shahar va tumanlar bo'yicha faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2025-yil 1-yanvar holatiga, birlik	2026-yil 1-yanvar holatiga, birlik
Angor tumani	1 070	1 077
Bandixon tumani	442	504
Boysun tumani	769	720
Denov tumani	2 326	2 320
Jarqo'rg'on tumani	1 491	1 567
Qumqo'rg'on tumani	1 221	1 286
Qiziriq tumani	777	864
Muzrabot tumani	773	806
Oltinsoy tumani	839	988
Sariosiyo tumani	999	1 064
Termiz tumani	1 405	1 453
Uzun tumani	901	940
Sherobod tumani	1 380	1 473
Sho'rchi tumani	1 299	1 318
Termiz sh.	3 409	4 373

Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni




II. Yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar

2025-yilning yanvar-dekabrida 4 752 ta yangi kichik korxona va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) tashkil qilindi.

2025-yilning yanvar-dekabrida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p kichik korxona va mikrofirma savdo sohasida 2 013 ta, sanoatda 658 ta, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida 603 ta hamda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda 476 tani tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni






Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxona va mikrofirmalar soni

	2024-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik	2025-yil yanvar-dekabr oylarida, birlik
Angor tumani	242	253
Bandixon tumani	109	105
Boysun tumani	144	107
Denov tumani	531	508
Jarqo'rg'on tumani	477	332
Qumqo'rg'on tumani	261	292
Qiziriq tumani	267	238
Muzrabot tumani	168	147
Oltinsoy tumani	264	308
Sariosiyo tumani	223	180
Termiz tumani	422	396
Uzun tumani	149	126
Sherobod tumani	281	299
Sho'rchi tumani	365	250
Termiz sh.	909	1211

III. Kichik tadbirkorlik subyektlarining asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari

2025-yilning yanvar-dekabrida YAHM tarkibida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 76,4 % ni tashkil qilib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan 1,5 punktga kamaygan.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining YAHMdagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan sanoat ishlab chiqarishi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 301,6 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi yoki sanoat ishlab chiqarishi umumiy hajmining 65,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 117,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotlaridagi eng yuqori ulushi Bandixon tumani (100,0 %), Uzun tumani (100,0 %), Oltinsoy tumani (99,8 %), Qiziriq tumani (98,8 %), Muzrabot tumani (98,2 %) va Sherobod tumani (93,6 %) hissasiga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining sanoat ishlab chiqarishi hajmi va jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 13 074,5 mlrd so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 89,3 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Sho'rchi tumani (96,0 %), Termiz shahri (95,7 %) va Denov (95,6 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining qurilish ishlari hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar hajmi 14 460,9 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 63,5 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 173,2 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmidagi eng yuqori ulushi Uzun (92,7 %), Bandixon (92,4 %) va Oltinsoy (91,4 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiya hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagi hajmi 39 316,7 mlrd so'mni yoki umumiy hajmidagi ulushi 93,0 % ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 101,4 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmidagi eng yuqori ulushi Oltinsoy (96,6 %), Sariosiyo (96,3 %), Sho'rchi (95,9 %) va Qumqo'rg'on (95,9 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan yetishtirilgan qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsuloti hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan chakana savdo faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning chakana savdo aylanmasi hajmi 28 398,8 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 96,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 109,9 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasidagi eng ko'p ulushi Boysun (99,5 %), Qiziriq (99,3 %), Muzrabot (99,2 %) va Bandixon (99,0 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari chakana savdo aylanmasining hajmi va jami savdo aylanmasidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan xizmatlar faoliyati

2025-yil yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning xizmatlar sohasidagi hajmi 26 675,3 mlrd so'mni yoki umumiy hajmining 75,0 % ini tashkil etdi. O'sish sur'ati 2024-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 113,0 % ni tashkil qildi.

Shahar va tumanlar kesimida kichik tadbirkorlik subyektlarining xizmatlar hajmidagi eng ko'p ulushi Bandixon (84,6 %), Qiziriq (82,3 %), Muzrabot (81,8 %), Oltinsoy (80,8 %) va Uzun (76,7 %) tumanlariga to'g'ri keldi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining eksport faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 348,4 mln AQSH dollarini yoki umumiy eksport hajmining 68,6 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Sariosiyo tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % va Muzrabot tumanida - 100,0 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) eksporti hajmi va jami eksport hajmidagi ulushi dinamikasi




Kichik tadbirkorlik subyektlarining import faoliyati

2025-yilning yanvar-dekabrida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 266,4 million AQSH dollarini yoki jami importning 94,0 % ini tashkil etdi.

2025-yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshirilgan mahsulotlar (ishlar va xizmatlar) importining jami importga nisbatan eng yuqori ulushi Oltinsoy tumanida - 100,0 %, Bandixon tumanida - 100,0 %, Boysun tumanida - 100,0 %, Muzrabot tumanida - 100,0 %, Qumqo'rg'on tumanida - 100,0 %, Qiziriq tumanida - 100,0 %, Uzun tumanida - 100,0 % ni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining mahsulot (tovar, ish va xizmatlar) import hajmi va jami hajmidagi ulushi dinamikasi



IV. Kichik tadbirkorlik subyektlari transport faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari

Kichik tadbirkorlik subyektlarining yuk tashish umumiy hajmidagi ulushi


2025-yilning yanvar-dekabrida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 94,1 % ni tashkil etdi. 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,7 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 96,7 % ni tashkil etgan bo'lib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 108,2 % ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transportida yo'lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,8 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 103,0,% ni tashkil qildi.

2025-yilning yanvar-dekabrida, avtomobil transporti yo'lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi 99,6 % ni tashkil etib, 2024-yilning tegishli davriga nisbatan o'sish sur'ati 102,6 % ni tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami transport faoliyatlaridagi ulushlari dinamikasi




V. Kichik korxona va mikrofirmalarning tanlanma kuzatuvlari natijalari

Umumiy iqtisodiy holatining baholanishi (korxonaning joriy holati bo'yicha)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari bo'yicha o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlariga ko'ra, kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini joriy davr uchun qulay deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 23,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida esa 37,9 % ga yetgan yoki 2021-yilning yanvar-dekabrida nisbatan 14,1 birlikka ko'paygan.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 72,8 % bo'lgan bo'lsa. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 52,5 % ni tashkil qildi. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 3,3 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 9,6 % ga yetgan.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (korxonaning joriy holati bo'yicha)




Umumiy iqtisodiy holatning baholanishi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)

Kichik korxona va mikrofirmalar faoliyati natijalari to'g'risida o'tkazilgan tanlanma kuzatuv ma'lumotlari natijasi bo'yicha kichik korxona va mikrofirmalarning ishbilarmonlik muhiti holati tahlil qilinganda, korxonalar tomonidan o'zlarining umumiy iqtisodiy vaziyatini yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli yaxshilanadi deb baholagan korxonalar ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 73,6 % ni tashkil etgan. Bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 63,1 % ni tashkil qildi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini o'zgarmaydi deb baholagan korxonalarning ulushi 2021-yilning yanvar-dekabrida 25,8 % bo'lgan bo'lsa, bu ko'rsatkich 2025-yilning yanvar-dekabrida 36,5 % yoki 10,7 birlikka ko'paygan. O'z navbatida, iqtisodiy vaziyatini yomonlashadi deb hisoblagan korxonalarning ulushi esa 2021-yilning yanvar-dekabrida 0,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilning yanvar-dekabriga kelib, bu ko'rsatkich 0,4 % ni tashkil qildi.

Kichik korxona va mikrofirmalarning yanvar-sentabr oylarida umumiy iqtisodiy holatining baholanishi dinamikasi (yaqin uch oyda o'zgarishlar istiqboli)




Kuzatuvda ishtirok etgan kichik korxona va mikrofirmalarning joriy davrda iqtisodiy vaziyatni baholash


Kichik korxona va mikrofirmalarning 2025-yilning IV choragida o'tkazilgan kuzatuv natijalariga ko'ra, joriy davrda iqtisodiy vaziyatini qulay deb baholagan korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha eng ko'p ulushi qurilishda - 45,5 % ni, savdoda - 40,5 % ni va xizmatda - 38,7 % ni tashkil etdi.

Shuningdek, iqtisodiy vaziyatini qoniqarli deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi sanoatda - 64,5 % ni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligidagida - 60,7 % ni va xizmatlar sohasida - 54,3 % ni tashkil etdi.

Iqtisodiy vaziyatini qoniqarsiz deb baholagan korxonalarning eng ko'p ulushi savdoda - 11,0 % ni, qurilishda - 10,4 % va ni sanoatda - 10,0 % ni tashkil etdi.



Biznesga ishonch muhitini baholash (o'tgan yilning shu davriga nisbatan joriy davrdagi o'zgarishlar)





VI. Kichik tadbirkorlik subyektlari statistikasi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) – tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o'zi tavakkal qilib va o'z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

Tadbirkorlik faoliyati subyektlari (tadbirkorlik subyektlari) belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan hamda tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirayotgan yuridik va jismoniy shaxslardir.

Tadbirkorlik subyektlari o'z faoliyatlarini muvofiqlashtirish, shuningdek, o'z huquqlari va manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish maqsadida, notijorat tashkilotlar bo'lgan uyushmalarga (ittifoqlarga) va boshqa birlashmalarga birlashishi mumkin.

Tayyorlash uchun mas'ul:
Tadbirkorlik subyektlari
kuzatuvlari bo'limi

Ijrochi:
A. Shoberdiyev
55 451-80-00 (1)

Manzil:

